
**INKLYUZIVLIK TA'LIM METODLARIDAN
SAMARALI FOYDALANISH**

Kuldashev Asror Maxmudovich

*Axborot kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti
HHM RTQ kafedrasi o'qituvchisi*

Annotatsiya: inkluziv ta'limga metodlari har bir o'quvchining individual ehtiyojlarini inobatga olgan holda ta'limga berish jarayonini tashkil etishga qaratilgan. Ushbu metodlar yordamida turli qobiliyat va imkoniyatlarga ega bo'lgan o'quvchilar bir xil muhitda o'qish, o'zaro hamkorlik qilish va o'z bilimlarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Kalit so'zlar: inkluziv ta'limga, hamkorlik, differensial o'qitish, hamkorlik, guruh ishlari, zamонавија texnologiyalar, o'quvchilarining ehtiyojlarini, refleksiya, ta'limga jarayoni, o'quv muhitini yaratish.

Аннотация: методы инклюзивного образования направлены на организацию образовательного процесса с учетом индивидуальных потребностей каждого обучающегося. Благодаря этим методам учащиеся с разными способностями и способностями имеют возможность учиться, взаимодействовать и развивать свои знания в одной и той же среде.

Ключевые слова: инклюзивное образование, сотрудничество, дифференцированное обучение, сотрудничество, командная работа, современные технологии, потребности учащихся, рефлексия, образовательный процесс, создание среды обучения.

Abstract: inclusive education methods are aimed at organizing the educational process taking into account the individual needs of each student. With these methods, students with different abilities and capabilities have the opportunity to learn, interact and develop their knowledge in the same environment.

Key words: inclusive education, cooperation, differential teaching, cooperation, teamwork, modern technologies, students' needs, reflection, educational process, creation of learning environment.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktyabrdagi "Alohida ta'limga ehtiyojlar bo'lgan bolalarga ta'limga berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-sonli qarori asosida 2020- 2025-yillarda Xalq ta'limi tizimida inkluziv ta'limga rivojlantirish Konsepsiysi tasdiqlandi. Inkluziv ta'limga — bu har bir o'quvchining individual ehtiyojlarini inobatga olgan holda, barcha o'quvchilarini bir xil

ta'lismuhitida o'qitish tamoyiliga asoslangan ta'litmizidir. Bu yondashuv, o'z ichiga maxsus ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilarni (masalan, nogironlar, o'ziga xos o'rganish qiyinchiliklariga ega bo'lganlar va boshqalar) ham qamrab oladi. Inkluziv ta'limning asosiy maqsadi har bir o'quvchining o'z imkoniyatlarini to'liq amalga oshirishiga yordam berish, ularning ijtimoiy, emosional va akademik rivojlanishini qo'llab-quvvatlashdir. Inkluziv ta'limning asosiy tamoyillari o'quvchilarning ehtiyojlarini aniqlash, differensial o'qitish, hamkorlik va guruh ishlari, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, o'z-o'zini baholash va refleksiya, o'qituvchilarni tayyorlash hamda ota-onalar bilan hamkorlikni o'z ichiga oladi. Ushbu tamoyillarni amaliyotda qo'llash orqali o'qituvchilar o'quvchilarning muvaffaqiyatini oshirishi, ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishi va ta'lim jarayonini yanada samarali qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Inklyuziv ta'lim tizimining umumiy qulayligi, uzuksizligi, ta'lim sifati, shuningdek, o'quvchilarning rivojlanish darajasi, xususiyatlariga moslashuvchanligi va variativligiga erishiladi; inklyuziv ta'lim sohasidagi xalqaro munosabatlar doirasida o'zaro hamkorlik aloqalari mustahkamlanadi; o'quvchilar ta'limiy ehtiyojlarining o'ziga xosligini inobatga olgan holda sifatli ta'lim olishi uchun ular davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi; inklyuziv ta'limni bosqichma-bosqich joriy etish orqali alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari optimallashtiriladi, ularda ta'lim olayotgan o'quvchilarning teng huquqli jamiyat a'zosi sifatida umumta'lim muassasalarida bilim olishi ta'minlanadi; pedagogik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yiladi; inklyuziv ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi yaxshilanadi; inklyuziv ta'lim muassasalarining Internet tarmog'iga to'liq ulanishi ta'minlanadi; - inklyuziv ta'lim muassasalarida o'quvchilarni qabul qilish va boshqa ta'lim muassasalariga o'tkazish uchun davlat xizmatlarini ko'rsatish mexanizmi joriy etiladi.

Inklyuziv ta'lim jismoniy va psixik imkoniyatlari cheklangan o'quvchilarni sog'lom o'quvchilar bilan bирgalikda o'qitishni anglatadi. Inklyuziv ta'lim bir qator muhim tamoyillarga tayanilgan holda amalga oshiriladi. Jumladan,

- inson qadri uning layoqatlari va yutuqlariga bog'liq emasligi prinsipi;
- har bir shaxsning his qilish va o'y lash layoqatiga egaligi prinsipi;
- har bir shaxsning muloqot qilish va tinglash huquqiga egaligi prinsipi;
- har bir shaxsning bir-biriga kerakliligi prinsipi;
- shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonining aniq hamkorlik asosida amalga oshirilishi prinsipi;
- har bir o'quvchining o'z tengdoshlarining qo'llab-quvvatlovi va do'stona munosabatlariga ehtiyojmandligi prinsipi;

- turli-tumanlik o'quvchi hayotining barcha jabhalarini rivojlantirishni ta'minlashi zarurligi prinsipi kabilar.

Inklyuziv ta'limning maqsadi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar uchun maktabda maxsus vosita va metodlarni qo'llash orqali maxsus pedagoglarni jalgan holda to'siqsiz moslashtirilgan ta'lim muhitini yaratish, ularning jamiyatga samarali moslashuvi hamda to'laqonli uyg'unlashuviga xizmat qiladigan sifatli ta'lim berishni ta'minlashdan iborat. **Inklyuziv ta'limning vazifalari quyidagilardan iborat:**

- rivojlanishning turli imkoniyatlariga ega bo'lgan o'quvchilar uchun har qanday kamshitilishni istisno qiladigan, barcha bolalarga teng munosabatda bo'lishni ta'minlaydigan yagona moslashtirilgan ijtimoiy muhitni yaratish;
- jamoatchilik hamda ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar muammolariga nisbatan bag'rikenglik munosabatini shakllantirish;
- ta'lim jarayonida sog'lom bolalar bilan bir qatorda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning aqliy va ijtimoiy salohiyatlarini rivojlantirish;
- barcha o'quvchilar uchun davlat ta'lim standartlariga muvofiq maktabgacha, umumiy o'rta, kasb-hunar va oliy ta'lim dasturlarini o'zlashtirish uchun imkoniyat yaratish;
- o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishi, emotsiyal-irodaviy sohasi, bilish faoliyatini faollashtirish, ijtimoiy ko'nikma va salohiyatini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;
- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga maslahat yordami berish hamda ota-onalarni farzandlariga ta'lim-tarbiya berish, pedagogik texnologiyalar, ta'lim-tarbiya metod va vositalarini qo'llash sohasida xabardorlik darajasini oshirish, ularni psixologik-pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlash. Inklyuziv ta'lim jarayonida alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan o'quvchilar sog'lom bolalar bilan birga bir mifik tabda, sinfda o'qitiladi. Imkoniyati cheklangan bolalar maktabga qadam qo'ygan kunlaridan boshlab alohida qo'llab-quvvatlashga muhtoj bo'ladilar. Bunday qo'llab-quvvatlash ularning butun hayotlari davomida zarur hisoblanadi. Shuning uchun ham maktab ta'limining dastlabki bo'g'inlaridan boshlab, bunday o'quvchilarning ijtimoiy rivojlanishlari uchun qulay shart-sharoit yaratish talab etiladi.

Usullar:

Inklyuziv ta'limni amalga oshirishda zamonaviy ta'lim usullari va metodlarini ilmiy ravishda tushuntirish uchun, bu qismda quyidagi usullar va metodlar ko'rib chiqilgan:

1. **Differensiyalangan o'qitish:** ushbu usulda, o'qituvchi o'quvchilarning turli xil xususiyatlari, qobiliyatlar va zarur talablari bo'yicha ta'limni individual tuzish uchun

vositalardan foydalanadi. Masalan, o'qituvchi har bir o'quvchi uchun maxsus taqdimotlar tayyorlaydi va ularga turli darajada vazifalar beradi.

2. Kooperativ ta'lism: bu usulda, o'quvchilar guruqlar birgalikda ishlaydilar va bir-birlari bilan hamkorlik qilishga chaqiriladi. Bu, o'quvchilarning ijtimoiy o'zaro aloqalarini rivojlantirish, o'rganishni qo'llab-quvvatlash va maslahatlashish tajribalarini oshirish uchun samarali usul hisoblanadi.

3. Texnologik ta'lism vositalari: zamonaviy texnologiyalar, inklyuziv ta'limda o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash va ularga turli xil bilimlarni o'rgatishda muhim rol o'yndi. Virtual ta'lism, onlayn ma'lumotlar bazalari, interaktiv darsliklar va boshqalar kabi texnologik vositalar o'quvchilarning qiziqishlarini oshirish va ta'lim jarayoniga qiziqishlarini oshishiga yordam beradi.

4. Amaliy ta'lism: bu usulda, o'quvchilarga amaliy va tajribaviy o'rganish muhitida dars jarayoni tashkil etiladi. O'quvchilar masalalarni hal qilish, ko'proq amaliy mashg'ulotlar orqali bilim olishlari ta'minlanadi.

5. Qo'llanish texnologiyalari: bu usul, o'quvchilarning ta'lism jarayoniga qiziqishlarini oshirish uchun bir qator qo'llaniladigan vositalardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Ijtimoiy tarmoqlar, veb-forumlar, veb-bloglar va boshqalar o'quvchilarning o'zaro hamkorlik qilish va bilim almashishlari uchun muhim bo'lib hisoblanadi.

Zamonaviy ta'lism usullari va metodlarining inklyuziv ta'limda amalga oshirilishi, ta'lism sohasidagi rivojlanish va innovatsiyalar uchun katta imkoniyatlar ochadi. Bu bahsda, zamonaviy ta'lism usullari va metodlarining inklyuziv ta'limga o'z ta'siri. ularning muhimligi talablari muntazam ravishda amalga oshiriladi.

1. O'quvchilar uchun boshqaruvi: zamonaviy ta'lism usullari va metodlarining inklyuziv ta'limda amalga oshirilishi, o'quvchilarning o'zlarini boshqarish va mustaqil o'rganishlarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu usullar o'quvchilarning o'zlashtirishini ta'minlaydi va ularni o'z ustida ishlashlarini rivojlantiradi.

2. O'qituvchilar uchun qo'llanishi: zamonaviy ta'lism usullari va metodlarining inklyuziv ta'limda qo'llanilishi, o'qituvchilar uchun yangi rivojlanish va professional rivojlanish imkoniyatlarini ochadi. Bu usullar o'qituvchilarni o'quvchilar bilan maslahatlashish, har bir o'quvchi uchun maxsus ta'lim rejasi tayyorlash va turli xil ta'lism vositalaridan foydalanish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

3. O'quvchilar o'rtasidagi hamkorlik: zamonaviy ta'lism usullari va metodlarining inklyuziv ta'limda qo'llanilishi, o'quvchilar o'rtasidagi hamkorlik va tushuncha almashishni oshirishga yordam beradi. Bu usullar o'quvchilarning ijtimoiy o'zaro aloqalarini rivojlantiradi va ularning boshqalarni hurmat qilishga o'rgatadi.

4. **O'quvchilarning ijtimoiy hayotga integratsiyalashishi:** zamonaviy ta'limga usullari va metodlarining inklyuziv ta'limga amalga oshirilishi, o'quvchilarning o'zlashtirilishi va ijtimoiy hayotga integratsiyalashishi jarayonini amalaga oshiradi. Bu usullar o'quvchilarning mustaqil ta'limga amalaga oshirishda katta rol o'yndaydi va ularni ijtimoiy hayotga muvofiq shakllantirishda muhim vazifani bajaradi.

Samarali inkluziv ta'limga metodlari orqali har bir o'quvchining individual ehtiyojlariga javob berish, ularning muvaffaqiyatini oshirish va ta'limga jarayonini yanada samarali qilish mumkin. Bu yondashuv nafaqat o'quvchilarning bilim darajasini oshiradi, balki ularni ijtimoiy hayotga tayyorlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOT:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i nutqi. 2020-yil 30-sentabr. (<http://marifat.uz/marifat/ruknlar/rasmiy/4939.htm>)
2. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi. Lex.uz.
3. BMTning "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyasi (UNCPRD) 2006-yil 13-dekabr.
4. INKLYUZIV TA'LIM VA YANGICHA PEDAGOGIK YONDASHUVLAR. F. A. Ibrohimov
5. <https://devedu.uz/wp-content/uploads/2024/05/4-Inklyuziv-talim-nazariya-va-metodika.pdf>